



CHET TILLARINI O'RGANISHDA TAQDIMOT VOSITALARI VA O'YINLARNING AHAMIYATI

Pardayeva Mehrangiz Sunyunboy qizi

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi.*

Ilmiy raxbar: Zubaydova N.N.

Annotatsiya: ushbu maqolada, ingliz o`rganishda zamonaviy texnologiyalar ya'ni taqdimot vositalarining turlari va ularning til o`rganishdagi qanday qulayliklari ega ekanligi, til o`rganishda o`yin metodlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar berildi.

Kalit so`zlar: prezentatsiya va ularning turlari, interfaol metodlar, video darslar, ped texnologiyalar, o`yinlar.

Hozirgi davrda xorijiy tillarni o`rganish va bilishning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Har bir soha vakili yetuk mutaxassis bo`lishi uchun o`z ona tilidan tashqari, dunyo tillaridan kamida ikki-uchtasini bilishi shart. Chunki xorijiy tillarni o`rganish orqali talabalar, o`quvchi va o`qutuvchilar ham o`z dunyo qarashlarini kengaytirishlari va bilimlarini chet eldagagi nufuzli universitelarda boyitish imkoniyatlariga ega bo`ladilar. Chet tillarini o`ranishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o`quvchilarda til o`raganishda bir qancha qulaylikllarini yaratib beradi va til o`rganishni osonlashtiradi.

Ma'lumotlarni ko`rgazmali taqdim etish dasturlari universal, imkoniyatlari keng bo`lgan, ko`rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videooraliq va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

POWER POINT prezentatsion (taqdimot) grafikli dasturlar qatoriga kiradi. Slaydlar ketma-ketligidan hosil bo`lgan prezentatsiyani (taqdimotni) kompyuter ekranida, videomonitorlar va katta ekranlarda namoyish qilish mumkin. Bu dastur bilan ishlashdan avval prezentatsiya, slayd, animatsiya, taqdimot tuzish tushunchalariga izoh beraylik.

PREZENTATSİYa - bu slaydlar va maxsus effektlar to`plami bo`lib, tayyor material, doklad yoki konspekt shaklida bo`lib, uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi bitta faylda saqlanadi va uni ekranda namoyish qilinadi.



SLAYD - ma'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi, yani prezentatsiyaning alohida kadri bo'lib, ichiga matn va sarlavhalarni, grafik va diagrammalarni olishi mumkin.[¹].

Taqdimot (inglizcha presentation so'zidan olingan) – audiovizual vositalardan foydalanib ko'rgazmali shaklda ma'lumot taqdim etish shakli. Taqdimot yagona manbara umumlashgan kompyuter animatsiyasi, grafika, video, musiqa va ovozni o'zida mujassam etadi. Odatda taqdimot ma'lumotni qulay qabul qilish uchun syujet, ssenariy va strukturaga ega bo'ladi. Taqdimotlar so'z bilan ifoda qilish qiyin bo'lgan jarayonlarni tez, aniq va tushunarli bo'lishi, axborotni qabul qilishda turli xil ko'rinishlarda aks etirilishi o'qituvchiga darsni tashkillashtirish va faol bo'lishida ko`makchi vositasini o`taydi.[²].

Bugungi kunda biz texnologiyalar asrida yashayotganligimiz bois xoriy tillarini o`rganishda va o`rgatishada taqdimot vosularidan qanday foydalanish ularning turlari, internet resurslaridagi til o`rganishga bog`liq bo`lgan saytlar darslar haqida ayrim ma'lumotlarga egamiz. Quyda chet tillarini o`rganishda muhim ahamiyat kasb etadigan viedo darslilar, olayn kurslar haqida aytib o`tiladi.

Nafaqat mamlakatimizda balki, butun dunyo ta'lim tizimida axborot texnologiyalari yordamida elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar, pedagogik dasturiy vositalar, turli ta'lim resurslari, o'qitishning elektron vositalari, multimediali darsliklar yaratish va ulardan foydalanish rivojlanib bormoqda. Bular o'z navbatida ilm-fan taraqqiyotiga, ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga katta hissa qo'shmoqda. Bunday darsliklardan keng qo'llaniladiganlaridan biri videodarsliklar hisoblanadi. Bu videodarsliklarning samaraliligi shundaki, o'quvchilar masofadan turib, mustaqil ta'lim olishi va istalgan vaqtida videodarsliklardan foydalanishlari mumkin. Bu esa bilimlarni doimo mustahkamlab borish imkonini beradi.[³].

Chet tillarini o`rgatishda video darslar muhim ahamiyat kasb etadi. Video darslar o'z nomidan ko'rilib turibdiki, ma'lumotlarni yoki tushunchalarni videorolliklar orqali o`rgatish. Bugungi kunda ko`plab platformalarda, jumaladan Youtube, Plus, GOOGLE va boshqa platformlar orqali ingliz tilidagi video darslarni ko`rish va ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

¹

²

³



Bundan tashqari xorijiy tillarni o`rganishda o`yinlarning ahamiyati katta hisoblanadi. O`yinlar bu qiziqarli mashg`ulot hisoblanib xorijiy o`rgatishda bolalarni qiziqtirish va darsga jalb etish uchun foydalaniladi. Bugungi kunda eng ko`p va keng tarqalgan interfaol o`yinlar bu “Aqliy hujum”, “Step by step” metodi, “Callan metodi” va “Cues and clues”, “Demonstrating”, “So`z zanjiri” metodi, “Raketa o`yini” kabilar yangi ped texnologiyalarning turlaridir.

“A dan Z gacha o`yin “-A dan Z gacha o`yin - bu qiziqarli va vaqt-i-vaqt bilan o`ylanadiga lug`at o`yini hisoblanib, sinfga biroz energiya kiritishning ishonchli usuli. Bu o`tilgan va yangi mavzularni tanishtirishning ajoyib usuli. Mavzular sifatlar, ish joylari, ovqatlar, ta`tilga olib boradigan narsalar va hokazolarni o`z ichiga olishi mumkin. Quydagicha o`ynaladi: A dan Z gacha harflarni doskadagi ustunlarga yozing. Har bir harf yonida so`z yozish uchun etarli joy borligiga ishonch hosil qiling. A dan Z gacha o`yin Sinfni ikkita jamoaga bo`ling (uchtasi mumkin, lekin tartibsiz bo`lishi mumkin). Har bir jamoa oldiga chiqadigan va doskada turadigan yozuvchini tayinlashni taklif qiling. Har bir yozuvchiga turli xil rangli qalam yoki bo`r kerak bo`ladi. Boshlash desangiz, talabalar har bir harfning yoniga mos so`z yozish uchun poyga qilishlari kerak. Misol uchun, agar mavzu sifatlar bo`lsa, ular yozishlari mumkin. Angry, Beautiful, va hokazo. Jamoadoshlar baqirib takliflar berish va imlo bo`yicha maslahatlar berish orqali yordam berishadi. O`quvchilariga darslik va lug`atlar kabi qo'llarida bo`lgan manbalardan foydalanishlariga to'sqinlik qilmaydi. Har bir harf uchun faqat bitta so`z yozilishi mumkin, shuning uchun birinchi bo`lib yozishni boshlagan kishi xatni talab qiladi. Besh yoki o'n daqiqadan so`ng yoki barcha harflar ishlatilgandan keyin (odatda X ni qoldiriladi) har bir jamoa yozgan har bir so`z uchun ball bering va g`oliblarni tabriklang. Agar imlo xatolari bo`lsa, sinfdan to`g`ri imloni toping.

“Ranglar so`zlaydi “metodi - bu metod o`quvchilardan o`tgan mavzuni takrorlash va narsalar va ma`lumotlarni bir biridan farqini ajrata olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O`yin shartida o`quvchilarga qizil sariq va yashil kartochkalar beriladi. Qizil (sabzavotlar), Sariq (poliz ekinlari) va Yashil (mevalar) uchun foydalinadi. Va o`tilgan mavzu ya`ni, “Meva va sabzavotlar” haqida so`zlar o`rganiladi. O`qituvchi o`quvchilarga mevalarni ko`rsatsa, o`quvchilar yashil kartochkani ko`rsatadi. Agar o`qituvchi sabzavotlarni ko`rsatsa, o`quvchilar qizil kartochkani ko`rsatadi. Agar o`qituvchi poliz ekinlarini ko`rsatsa, o`quvchilar yashil kartochkani ko`rsatadi. Ushu o`yin orqali o`tilgan mavzular qiziqarli va samarali takrorlandi. O`quvchi uchun ham vaqtni to`g`ri taqasimlashga xizmat qiladi.[4;2].



Xulosa qilib aytganda chet tillarini o`ragtishda video darsliklar va ko`rgazmali qurollar turli xil o`yin metodlaridan foydalanish o`quvchilarning til o`rganishga bo`lgan motivatsiyasini oshirishga , tillarni tez va oson o`rganishiga imkon yaratadi. Til o`rganuvchilarda mantiqiy va tanqiadiy fikrlash qobilayatlarini shakllantirishda va axborot-texnologiyalaridan foydalanishga imkon beradi

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Mavzu: taqdimot yaratishning zamonaviy vositalari <https://azkurs.org/mavzu-taqdimot-yaratishning-zamonaviy-vositalari.html>.
- 2.https://sg.docworkspace.com/d/sIAfM2fPHAZjr56oG?sa=share.copy_link.
3. Talim JARAYONIDA VIDEODARSLAR YARATISH TEXNOLOGIYASI VA ULARNING AHAMIYATI Murodqosimova Shodiya Jizzax davlat pedagogika institute talabasi Tangirov Xurram Ergashevich Jizzax davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi E-mail: xurramtangirov@gmail.co.
https://sg.docworkspace.com/d/sIAfM2fPHAZjr56oG?sa=share.copy_link.
4. International scientific -practical conference KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA (OQUVCHILARGA) XORIJY TILLARNI INTERFAOL USULLARDA ORGATISH METODLARI Xolmatova Hamrobi Shermurod qizi(2). <https://www.intereuroconf.com/index.php/DESH/article/view/2464>.
5. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).
6. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary (2019).
7. <https://eslgames.com/tic-tac-toe/>.